

# “Yoshlik I” konini o‘zlashtirish” loyihaci to‘g‘risida

## MA’LUMOTNOMA

(01.10.2023 yil holatiga)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Olmaliq KMK” AJ konlari negizida rangli va qimmatbaho metallar ishlab chiqarishni kengaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2020 yil 26 maydagi PQ-4731-son qaroriga muvofiq mazkur loyihani amalga oshirish natijasida:

loyihaning **birinchi bosqichida** ya’ni 2021-2025 yillarda 300 ming tonna mis katodi, 25 tonna oltin va 176 tonna kumush ishlab chiqarilishiga erishiladi.

**Ikkinchi bosqichda**, ya’ni 2024-2028 yillarda 400 ming tonna mis katodi, 35 tonna oltin va 220 tonna kumush ishlab chiqarilishiga erishiladi.

**Uchinchi bosqichda** 2030 yilga kelib 500 ming tonna mis katodi, 50 tonna oltin va 300 tonna kumush ishlab chiqarilishiga erishiladi.

## LOYIHANI AMALGA OSHIRISHNING JORIY HOLATI

### 1. Yoshlik I koni bo‘yicha:

“Yoshlik I” konini o‘zlashtirish bo‘yicha ishlar jadal olib borilayapti. **2 smenada** ishlar tashkil etilgan.

Bugungi kunda obyektida tog‘-kon ishlari olib borilmoqda, **1 743 nafar** ishchi-xodimlar va **400 donadan oshiq** texnika ishlamoqda.

Bosh loyihachi “Giprotsvetmet” AJ tomonidan bugungi kunga qadar loyihaning birinchi navbati bo‘yicha texnik-iqtisodiy ishlab chiqilib, Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlandi. Ishchi hujjat ishlab chiqilmoqda.

“Yoshlik I” ruda qatlamiga yetish va uni qazib olish maqsadida tuproq ishlari jadallik bilan olib borilmoqda. 2023 yil 1 oktyabr holatiga jami bajarilgan kon qazish ishlari hammasi bo‘lib 163,7 mln m<sup>3</sup> tashkil etmoqda.

Bundan tashqari, konda vaqtinchalik temiryo‘llar va tashqi kommunikatsiyalarni qurish ishlari olib borilmoqda.

### 2. 3-Mis boyitish fabrikasi (MOF-3) bo‘yicha

“UZTM-Karteks” va “Enter Enginering” kompaniyalari konsortsiumi hamda “Olmaliq KMK” AJ o‘rtasida 3-son Mis boyitish fabrikasini (3-MBF) qurib, “Tayyor holda topshirish” sharti bilan qiymati 2 mlrd. dollar bo‘lgan shartnoma tuzilgan.

Loyihalashtirish ishlariga “Wood” (Italiya), loyiha hujjatlarini texnik jihatdan baholash va qabul qilish uchun “Technip Energies” (Buyuk Britaniya) kompaniyalari jalb qilingan.

«Enter Engineering» kompaniyasi tomonidan qurilish ishlarini jadallashtirish uchun 2022 yil may oyida foydalanishga topshirilgan metallkognstruksiyalar ishlab chiqarish zavodi qurildi.

Bugun kunda qurilish hududida 16 mln (89%) kub metr yer ishlari va 441,1 ming kub metr(59%) beton ishlari amalga oshirildi.

Bugunda obyektida 7915 nafardan ziyod quruvchi va 675ta maxsus texnika vositalari ishlamoqda.

Shuningdek, qoldiqlarni saqlash obyektlari bo'yicha zarur bo'lgan yer maydonlari ajratilib, bugungi kunda poydevor qurish ishlari olib borilmoqda.

### **3. Suv ta'minoti ob'ektlarini qurish bo'yicha.**

3-MBFning tashqi suv ta'minotining tashqi sxemasi tasdiqlandi;

Zarur bo'lgan yer maydonlari ajratilib (712 gektar), chegaralar aniqlandi;

“O'zbekgidrogeologiya” DUK tomonidan suv zaxiralarini tasdiqlash maqsadida qidiruv ishlari olib borilmoqda;

“O'zgeorangmetLITI” instituti tomonidan jami ishchi hujjat ishlab chiqilmoqda.

### **4. Elektr ta'minot bo'yicha:**

“Yoshlik-I” konining tashqi elektr ta'minoti obyektlarini qurish bo'yicha tanlov o'tkazilib, “O'zelektroapparat-Electroshield” kompaniyasi bilan shartnoma imzolangan. Ayni paytda 10 km 500 kV elektr liniyasining metall ustunlari to'liq o'rnatilib, 7,5 km qismiga sim tortildi.

Shuningdek, asosiy uskunalarni yetkazib berish ishlari yakunlandi (100%), montaj ishlari olib borilmoqda.

7 dona 500/100 transformatorlar o'rnatildi.

Nimstantsiya binosini qurilish ishlari olib borilmoqda.